

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KASIMOVA ZILOLA G‘ULOMIDDIN QIZI

**TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA
IJTIMOIY MEDIA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the
Doctor of Science (DSc) on economics sciences**

Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi

Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketing samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish.....3

Касимова Зилола Гуломиддин кизи

Совершенствование методологии повышения эффективности социально-медийного маркетинга в развитии туризма..... 37

Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi

Optimization of the methodology for improving the effectiveness of social media marketing in tourism promotion.....75

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 81

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KASIMOVA ZILOLA G‘ULOMIDDIN QIZI

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA
IJTIMOY MEDIA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt1460 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.issue.uz) va "Ziyounet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziyounet.uz) joylashirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Aliyeva Mahbuba Toychiyevna

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: G'ulomov Saidahror Saidahmedovich

iqtisod fanlari doktori, akademik

Safarov Baxodir Shaxriyarovich

iqtisod fanlari doktori, professor

Akramov Tohir Abdirahmonovich

iqtisod fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 08-soni 08-08 soat 44 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzili: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kutubxonasida tanishish mumkin (Manzili: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72); faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "08" 15 kuni tarqatildi.

(2025-yil "08" 15-raqamli reyestr bayonnomasi)



G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
Bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djuraboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
Bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi
Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik
ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XXI asrda raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keskin rivojlanayotgan bir paytda, turizm industriyasi uchun ijtimoiy media marketingi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda AQSh, Avstraliya, Ispaniya kabi yetakchi davlatlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turizm mahsulotlarini ilgari surish, brending va interaktiv kontent yaratish orqali milliardlab dollar daromad olishmoqda. Global miqyosda 2025-yilga kelib sayohat ilovalari foydalanuvchilari soni 850 milliondan oshishi kutilayotgani¹, pandemiyadan keyingi tiklanish va raqamli texnologiyalar turizm sohasining asosiy omiliga aylanganini ko'rsatadi.

Jahonda ijtimoiy media marketing bugungi kunda turizm sohasida nafaqat axborot yetkazish, balki mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, brendni shakllantirish, tahliliy natijalarni olish va sotuvlarni rag'batlantirishning samarali vositasiga aylangan. Turizmning raqobatbardoshligi endilikda kontent sifati, vizual kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchanlik darajasi bilan belgilanmoqda. Bu esa ushbu vositalardan strategik va innovatsion foydalanish metodologiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli infratuzilma jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayon turizmni raqamli kommunikatsiyalar orqali targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. DataReportalning "Digital 2024: Uzbekistan"² hisobotiga ko'ra, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 29,52 millionga yetgan bo'lib, bu umumiy aholining 83,3 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, 8,70 million kishi ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lib, aholining 24,6 foizini qamrab olgan. Mamlakat bo'yicha 33,81 million faol mobil aloqa ulanishi mavjud bo'lib, bu 95,5 foizlik qamrov darajasini ko'rsatadi². Bu kabi ko'rsatkichlar O'zbekistonda ijtimoiy media marketing vositalari orqali turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, milliy brend imijini shakllantirish va mehmonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri interaktiv muloqot qilish uchun qulay zamin yaratmoqda. Aholining ko'proq yosh va texnologiyaga moslashgan qatlami aynan mobil ilovalar, vizual kontent va interaktiv reklama orqali turizmga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Bu esa milliy turistik loyihalarni ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli auditoriyaga yetkazishda yangi marketing yondashuvlarini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida turizm sohasini modernizatsiya qilish va uni global raqobatbardosh yo'nalishga aylantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³ PF-5611-son farmoni, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali

¹ Travel App Statistics. Olingan manba: <https://prioridata.com/data/travel-app-statistics/>

² DataReportal. (2024). Digital 2024: Uzbekistan. We Are Social & Meltwater. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³ PF-5611-son farmoni. <https://lex.uz/docs/4163193>

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XXI asrda raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keskin rivojlanayotgan bir paytda, turizm industriyasi uchun ijtimoiy media marketingi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda AQSh, Avstraliya, Ispaniya kabi yetakchi davlatlar ijtimoiy tarmoqlar orqali turizm mahsulotlarini ilgari surish, brending va interaktiv kontent yaratish orqali milliardlab dollar daromad olishmoqda. Global miqyosda 2025-yilga kelib sayohat ilovalari foydalanuvchilari soni 850 milliondan oshishi kutilayotgani¹, pandemiyadan keyingi tiklanish va raqamli texnologiyalar turizm sohasining asosiy omiliga aylanganini ko'rsatadi.

Jahonda ijtimoiy media marketing bugungi kunda turizm sohasida nafaqat axborot yetkazish, balki mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, brendni shakllantirish, tahliliy natijalarni olish va sotuvlarni rag'batlantirishning samarali vositasiga aylangan. Turizmning raqobatbardoshligi endilikda kontent sifati, vizual kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchanlik darajasi bilan belgilanmoqda. Bu esa ushbu vositalardan strategik va innovatsion foydalanish metodologiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda raqamli infratuzilma jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu jarayon turizmni raqamli kommunikatsiyalar orqali targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. DataReportalning "Digital 2024: Uzbekistan" hisobotiga ko'ra, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 29,52 millionga yetgan bo'lib, bu umumiy aholining 83,3 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, 8,70 million kishi ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lib, aholining 24,6 foizini qamrab olgan. Mamlakat bo'yicha 33,81 million faol mobil aloqa ulanishi mavjud bo'lib, bu 95,5 foizlik qamrov darajasini ko'rsatadi². Bu kabi ko'rsatkichlar O'zbekistonda ijtimoiy media marketing vositalari orqali turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, milliy brend imijini shakllantirish va mehmonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri interaktiv muloqot qilish uchun qulay zamin yaratmoqda. Aholining ko'proq yosh va texnologiyaga moslashgan qatlami aynan mobil ilovalar, vizual kontent va interaktiv reklama orqali turizmga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Bu esa milliy turistik loyihalarni ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli auditoriyaga yetkazishda yangi marketing yondashuvlarini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida turizm sohasini modernizatsiya qilish va uni global raqobatbardosh yo'nalishga aylantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi³ PF-5611-son farmoni, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali

¹ Travel App Statistics. Olingan manba: <https://prioridata.com/data/travel-app-statistics/>

² DataReportal. (2024). Digital 2024: Uzbekistan. We Are Social & Meltwater. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son farmoni. <https://lex.uz/docs/4163193>

tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁴ PQ–238-son va 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi⁵ PQ–135-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. 2023-yilda turizmni ijtimoiy tarmoqlarda faol ilgari surish uchun davlat byudjetidan 100 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan⁶ bo‘lib, bu raqamli marketing infratuzilmasini rivojlantirishdagi e‘tiborni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Samarqand shahrida o‘tkazilgan UNWTONing 25-Bosh assambleyasi o‘tkazilib “Ipak yo‘lida turizm” brendi doirasida xalqaro kontent marketing kampaniyalari yo‘lga qo‘yildi⁷. Ilmiy nuqtayi nazardan esa, turizmni ijtimoiy media marketing samaradorligini baholash, indikatorlar tizimini ishlab chiqish, iqtisodiy natijadorlikni o‘lchash va milliy modelni shakllantirish kabi muammolar hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababli, mazkur dissertatsiya O‘zbekistonda ijtimoiy media marketing asosida turizmni innovatsion rivojlantirish konsepsiyasini taklif etib, amaliyotga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Xorijiy davlatlarda turizm va ijtimoiy media marketingi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, asosan, Cornell, Massachusetts, Florida va Arizona universitetlari (AQSh); Oxford, Cambridge, Leeds Beckett va Manchester Metropolitan universiteti (Buyuk Britaniya); Lund va Stockholm universiteti (Shvetsiya); Queensland, Griffith va Charles Sturt universiteti (Australiya); Heidelberg, Myunxen texnik va Berlin Humboldt universiteti (Germaniya); Sorbonna va ESSEC biznes maktabi (Fransiya); Barcelona avtomobil va Madridfaning Complutense universiteti (Ispaniya); Toronto va McGill universiteti (Kanada); Seoul milliy va Koreya universiteti (Janubiy Koreya) olimlari tomonidan olib borilgan.

Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirish metodologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar, asosan, quyidagi davlatlar va universitetlar tomonidan olib borilgan: Amerika Qo‘shma Shtalari: Cornell University (Turizm va mehmonxona boshqaruvi instituti), University of Massachusetts (Raqamli

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–238-son qarori. <https://lex.uz/docs/6641207>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–135-son qarori. <https://lex.uz/docs/6497019>

⁶ Uzbekistan to funnel US\$ 100 bn into tourism marketing and advertisement projects. https://daryo.uz/en/2023/03/30/uzbekistan-to-funnel-us-100-bn-into-tourism-marketing-and-advertisement-projects?utm_source=chatgpt.com

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidenti-butunjahon-turizm-tashkiloti-bosh-assambleyasining-25-sessiyasida-qator-muhim-tashabbuslarni-ilgari-surdi>

marketing kafedrası), University of Florida (Sayyohlik tadqiqotlari markazi); Buyuk Britaniya: University of Oxford (Sayyohlik va raqamli transformatsiya markazi), University of Cambridge (Raqamli media va turizm instituti); Germaniya: Technical University of Munich (Raqamli turizm strategiyalari kafedrası), Heidelberg University (Sayyohlik menejmenti instituti); Fransiya: Sorbonne University (Turizm va ijtimoiy media tadqiqotlari instituti), ESSEC Business School (Raqamli marketing kafedrası); Ispaniya: Autonomous University of Barcelona (Raqamli turizm markazi); Janubiy Koreya: Seoul National University (Sayyohlik va ijtimoiy media instituti); Avstraliya: University of Queensland (Raqamli transformatsiya va turizm markazi). Ushbu universitetlar turizm sohasida ijtimoiy media marketingi va raqamli marketing bo'yicha yetakchi ilmiy maktablarni shakllantirgan.

Xorijiy davlatlarda turizm va ijtimoiy media marketingi bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan ba'zi nufuzli universitetlar va tadqiqot markazlari quyidagilar: Cornell University (AQSh): Turizm va mehmonxona boshqaruvi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boradi; University of Surrey (Buyuk Britaniya): Turizm tadqiqotlari va marketing strategiyalari bo'yicha ixtisoslashgan; University of Queensland (Avstraliya): Turizm va ijtimoiy media marketingi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi; Università Bocconi (Italiya): Biznes va iqtisodiyot sohaslarida, shu jumladan, turizm marketingiga oid tadqiqotlarni amalga oshiradi; Hong Kong Polytechnic University (Gonkong): Turizm va mehmonxona sohasida innovatsion tadqiqotlar olib boradi; University of Central Florida (AQSh): Turizm va sayohat bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar markazi. Ushbu universitetlar xorijda turizm sohasidagi ijtimoiy media marketingidan foydalanishni o'rganish va marketing strategiyalarini tadqiq qilishda muhim rol o'ynaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xiao Guo, Liping Cai, Maria Ek Styvén va Carmen Cox, Ulrike Gretzel, Marianna Sigala, Daniel R. Fesenmaier, Rob Law, Dimitrios Buhalis, Zheng Xiang⁸ kabi olimlar turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligiga doir qator tadqiqotlar olib borgan.

MDH davlatlari olimlaridan M.A. Morozov, N.S. Morozova, Ye.F. Djanjugazova, A.M. Kaliyev, A.S. Ivanova, A.V. Zaitseva, Z. Altaibayeva⁹lar

⁸ Xiao Guo va Liping Cai (2023) – “Social media marketing strategies in tourism industry: A systematic review” (Tourism Management, Vol. 94) DOI: 10.1016/j.tourman.2023.104632; Maria Ek Styvén va Carmen Cox (2022) – “Social media engagement in destination marketing” (Journal of Destination Marketing & Management) DOI: 10.1016/j.jdmm.2022.100693; Ulrike Gretzel (2021) – “Social Media Analytics in Tourism” Tourism Information Technology DOI: 10.1007/978-3-030-05324-6_8; Marianna Sigala (2020) – “Tourism and Social Media: A Literature Review” International Journal of Contemporary Hospitality Management DOI: 10.1108/IJCHM-03-2020-0242; Daniel R. Fesenmaier. “The role of smartphones in mediating the touristic experience”. Journal of travel research 51.4 (2012): 371-387.; Rob Law. “Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet – The state of eTourism research”. Tourism management 29.4 (2008): 609-623; Buhalis, Dimitrios, and Aditya Amaranggana. “Smart tourism destinations”. Information and communication technologies in tourism 2014: Proceedings of the international conference in Dublin, Ireland, January 21-24, 2014. Springer International Publishing, 2013; Xiang, Zheng, and Ulrike Gretzel. “Role of social media in online travel information search”. Tourism management 31.2 (2010): 179-188.

⁹ Морозов М.А., Морозова Н.С. (2022). “Цифровые маркетинговые коммуникации в туризме” Сервис Plus, №2 DOI: 10.24412/2413-693X-2022-2-29-37; Джанджугазова Е.А. (2021). “Маркетинг в социальных сетях: новые возможности для туристского бизнеса” Российские регионы: взгляд в будущее DOI: 10.24411/2409-4676-2021-10102; Калыева А.М. (2023). “Продвижение туристских услуг в социальных сетях” Вестник КазНУ. Серия экономическая DOI: 10.26577/be.2023.v144.i2.09; Zaitseva, Natalia A., et al. “The long-term forecast of the Russian tourism development”. International review of management and marketing 6.5 (2016): 103-

mavzuga doir salmoqli izlanishlar qilishgan.

Turizm sohasining nazariy va amaliy jihatlari, boshqaruv tizimlari, marketing strategiyalari, infratuzilma rivoji hamda zamonaviy transformatsiya tendensiyalari qator mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, K.X. Abdurahmonov, M.T. Aliyeva, M. Amonboyev, S. Khalilov, A.A. Eshtayev, N.S. Ibragimov, A.N. Norchayev, N.N. Safarov, I.S. Safarova¹⁰lar tomonidan barqaror turizm tamoyillari va ularning amaliy jihatlari chuqur tadqiq etilgan. Turizm sohasi bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning har biri muayyan yo'nalishlarga qaratilgan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda esa ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirishning tizimli metodologiyasi yetarli darajada yoritilmagan. Bu holat mazkur dissertatsiya mavzusining ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda turizm sohasida raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot, brend menejment va PR faoliyati borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A.M. Abduvohidov, M.T. Alimova, F.J. Eshbekov, N.S. Ibragimov, N.A. Islomova, E.A. Jabborov, M.N. Maxkamova, B.N. Navruz-zoda, G.N. Rashidova, D.N. Sultonova, A.S. Turayev, A.R. Turg'unov, A.I. To'xtaboyev, O.M. Xamroyev, M.S. Xusniddinova¹¹lar tomonidan sohaga oid ilmiy-nazariy va amaliy tamoyillar aniqlangan.

110.; Altaibayeva, Zhanat K., et al. "Assessment of the main economic indicators of tourism development in Kazakhstan". *Journal of Environmental Management and Tourism* 11.4 (2020): 925-936.

¹⁰ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма // учебное пособие. – Т.: “Фан ва технология”, 2014. – 332-б.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // *Iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati*. – Samarqand, 2019. – 68-b.; Amonboyev M., Khalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi // O'quv qo'llanma. – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi”, 2021. – 96-b. – ISBN 978-9943-7661-7-4; Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. – Т.: Fan, 2011. Т. 1. № 1. – 280-b.; Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // *dis. ... i.f.n. Buxoro*, 2006. Т. 1. № 1. – 183-b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // – Т.: Fan va texnologiya, 2016. Т. 1. № 1. – 184-b.; Safarova N.N. Turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari // *Monografiya*. – Т.: IFMR nashriyoti. 2017. – 220-b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // *Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. – Т.: TDIU, 2021. – 246-b.

¹¹ Abduvohidov A.M. (2021) "Turizm rivojlanishining tahlili va prognozi". Zamonaviy marketing konsepsiyalari asosida yangi bozorlarni o'zlashtirish, qulay investitsion muhitni shakllantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy integratsiya va transport koridorlarini kengaytirish yo'nalishlari. -Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. Alimova M.T. (2022). "O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilish masalalari". *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №3; Eshbekov F J. "Brend menejment va ijtimoiy media imkoniyatlarining integratsiyasi". "Yosh olim" ilmiy jurnali, 2021-yil, №3; Ibragimov N.S. (2022). "Turizm sohasida raqamli transformatsiya va ijtimoiy tarmoqlar samaradorligi". *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, №4; Islomova N.A. "Turizm xizmatlari marketingi samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslari". *DSc (Iqtisodiyot fanlari doktori)*, 2022-yil, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidagi ilmiy daraja beruvchi tashkilot; Jabborov E.A. "Innovatsion marketing texnologiyalarining turizm sohasidagi o'rni". "Innovatsion rivojlanish" jurnali, 2021-yil, №2; Mahkamova M.N. "Raqamli marketing vositalarining turizm sohasidagi roli". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2022-yil, №4; Navruz-zoda B.N. (2021). "Raqamli marketing va turizm xizmatlarini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish" *Servis*, №2; Nurfayziyeva M.Z. "Marketing strategiyalarini qo'llash orqali mamlakat turizm bozorini rivojlantirish istiqbollari". "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, 2023-yil, maxsus son; Rashidova G.N. "O'zbekistonning turizm brendini shakllantirishda internet marketingning o'rni". "Marketing va bozor" jurnali, 2020-yil, №4; Sultonova D.N. "Turizm sohasida raqamli marketing vositalarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2022-yil, №3; Turayev A.S. (2023). "O'zbekiston turizmida ijtimoiy media marketingni rivojlantirish istiqbollari". *BuxDU ilmiy axboroti*, №1; Turg'unov A.R. "Turizm sohasida PR va ijtimoiy tarmoqlarning o'zaro integratsiyasi". *Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari*, 2020-yil; To'xtaboyev A.I. "O'zbekiston turizm salohiyatini xorijiy bozorlarda ilgari surish strategiyasi". *Ilmiy daraja: PhD*, 2021-yil, O'zbekiston Respublikasi OAK ro'yxatidagi ilmiy daraja beruvchi

Yuqoridagi manbalar dissertatsiya mavzusining muhim jihatlari – raqamli marketing vositalari, ijtimoiy media samaradorligi, PR va kommunikatsiya, strategik boshqaruv yo‘nalishlari ma’lum darajada tadqiq etilganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu ishlarda ijtimoiy media marketingi samaradorligini kompleks ravishda baholash, uning indikatorlari asosida model yaratish va ularni turizm sohasiga moslashtirish masalalari to‘liq ochib berilmagan. Bu esa mazkur dissertatsiya mavzusining ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, № A-2-34 – “Milliy brendlarni shakllantirish asosida O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish” mavzusidagi 2015–2017-yillarga mo‘ljallangan ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turizmni rivojlantirish innovatsion metodologiyasini ishlab chiqish, bunda ijtimoiy media marketingi orqali ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan strategik yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm sohasida ijtimoiy media marketingining mohiyati va ahamiyatini aniqlash, ushbu faoliyat turizm iqtisodiyoti, iste’molchilar xatti-harakati va raqamli kommunikatsiyalar bilan qanday uyg‘unlikda rivojlanayotganini o‘rganish;

xalqaro sayyohlik bozorida ijtimoiy media vositalaridan foydalanishning dolzarb tendensiyalarini aniqlash, ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

turistik korxonalarining ijtimoiy media strategiyalarini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash, maqsadli auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini baholash;

ijtimoiy media marketingi samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish, metrikalar, indikatorlar va ko‘rsatkichlar tizimini yaratish;

turizm xizmatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rmini aniqlash, innovatsion yechimlarning xizmat sifati va mijozlar tajribasiga ta’sirini o‘rganish;

turizmda ijtimoiy media marketingidan foydalanishning innovatsion usullarini ishlab chiqish va ularni joriy etish mexanizmlarini taklif qilish;

turizm salohiyatini targ‘ib qilishda ijtimoiy media marketingidan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

turistik destinatsiyalar brendingida ijtimoiy media marketingidan foydalanish istiqbollari aniqlash, ichki va tashqi brending strategiyalarini yaratish hamda rivojlantirishga oid takliflar ishlab chiqish va boshqalar.

tashkilot; Xamroyev O.M. “Marketing kommunikatsiyalarida internet texnologiyalarining o‘rmi”. TDIU ilmiy jurnali, 2021-yil, №1; Xusniddinova M.S. “Samarali marketing strategiyalari orqali O‘zbekistonni raqobatbardosh turizm yo‘nalishi sifatida jonlantirish”. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2023-yil, maxsus son.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi turizm korxonalarining ijtimoiy media marketing faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirish mexanizmlari, metodologiyasi va konseptual asoslarini ishlab chiqish jarayonlariga oid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, kuzatish, so‘rovnomma, umumlashtirish, tizimli-mantiqiy tahlil, ko‘p omilli va dinamik taqqoslash, davriylashtirish, ekonometrik modellashtirish, korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili, sentiment tahlili (kontent tahlili), TF-IDF algoritmi, prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “turizmda ijtimoiy media” turizm sohasida brendlarni rivojlantirish va mijozlar bilan interaktiv muloqotni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u turistik kompaniyalar va mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida samarali aloqalar o‘rnatish, maqsadli auditoriyani jalb qilish va mijozlarning fikr-mulohazalarini yig‘ish orqali turistlar tajribasini yaxshilashga xizmat qiladi, shu bilan birga, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

turistik korxonalarining ijtimoiy media ko‘rsatkichlari va turistik oqimlar o‘rtasidagi korrelyatsion model ishlab chiqildi, bunda panel ma‘lumotlar asosida samaradorlik ko‘rsatkichlarining yuqori bog‘liqligi ($R = 0.78$) aniqlangan va xarajatlarni 25 % ga optimallashtirish taklif etilgan;

turistik kontentning jalb etuvchanligi va relevantligini baholashning analitik modeli yaratildi, bunda sentiment tahlil (70 % ijobiy natija) va TF-IDF algoritmi (0.12-0.13 yuqori ko‘rsatkich) asosida kontent samaradorligining miqdoriy ko‘rsatkichlari inobatga olingan holda takomillashtirilgan;

turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligining regression modeli ($R^2 = 0.741$) yaratildi, bunda marketing investitsiyalari rentabelligini ko‘p omilli tahlil ($F = 53.663$, $p < 0.01$) asosida baholash taklif etilgan;

O‘zbekistonda turizm sohasining istiqboldagi rivojlanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy media marketing va raqamli infratuzilma ko‘rsatkichlari inobatga olingan holda, xorijiy turistlar soni hamda turizm xizmatlari eksportining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

turistik korxonalar uchun ijtimoiy media marketing strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi. Ushbu mexanizmlar orqali turistik tashkilotlarning raqamli kommunikatsiya jarayonlarini samarali boshqarish, maqsadli auditoriyani aniqlash, ijtimoiy tarmoqlardagi faollikni tahlil qilish hamda kontent strategiyasi takomillashtirildi;

ijtimoiy media orqali mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash va xizmatlarni ilgari surishning innovatsion yondashuvlari ishlab chiqildi. Bu yondashuvlar doirasida foydalanuvchi tajribasini chuqur tahlil qilish, personalizatsiya va feedback tizimini integratsiyalash asosida turistik mahsulotlar konversiyasini oshirish mexanizmlari yaratildi;

turistik mahsulot va xizmatlarni ijtimoiy media marketingi orqali ilgari surishning samarali yo‘nalishlari taklif qilindi. Jumladan, vizual kontent,

influenser marketing, storytelling va viral kampaniyalar asosida reklama samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar tizimlashtirildi;

turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligini baholovchi va tahlil qiluvchi kompleks metodologiya ishlab chiqildi. Unda raqamli texnologiyalar, regression tahlil, kontent monitoringi va platformalararo konversiya tahlili vositasida turistik korxonalar faoliyatini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi;

xalqaro tajribalarni tahlil qilish asosida O‘zbekiston turizmida ijtimoiy media marketingini rivojlantirish konsepsiyasi shakllantirildi. Bu konsepsiyada raqamli transformatsiya, turistik brendlarni ijtimoiy media orqali rivojlantirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va ichki bozor salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan xorijiy tadqiqot usullarining so‘rovnomadan o‘tganligi hamda uni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish imkonining yuqoriligi, shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, vazirlik, idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish korxonalar va tashkilotlari ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, tavsiflovchi statistika, tadqiqot davomida zamonaviy iqtisodiy-matematik usullar va modellar qo‘llangani, olingan natijalarning amaliyotda sinovdan o‘tkazilganligi va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligi hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda turistik korxonalarining ijtimoiy media ko‘rsatkichlari va turistik oqimlar o‘rtasidagi korrelyatsion model ishlab chiqilgan. Ushbu model asosida marketing xarajatlarini 25 %ga optimallashtirishga erishildi. Turistik kontentning jalb etuvchanligi va relevantligini baholash uchun analitik model yaratildi, bunda sentiment tahlil va TF-IDF algoritmi asosida kontent samaradorligi aniqlandi. Bu analitik model marketing budjetini taqsimlash va maqsadli auditoriyani segmentlash uchun optimallashtirilgan ekonometrik model ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilgan, natijada ROI ko‘rsatkichi 35 %ga oshgan. Turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligini baholash uchun regression model yaratilgan, bu esa marketing investitsiyalari rentabelligini ko‘p omilli tahlil orqali baholash imkonini beradi. Turistik mahsulotlar konversiyasini prognozlash modeli ishlab chiqilgan va eng yuqori konversiya darajasi 4.1 % bo‘lib, turistik oqimlar 20 %ga ko‘paytirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat: turistik korxonalar faoliyatini optimallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan, bunda turistik destinatsiyalardan ijtimoiy media marketingida foydalanishning innovatsion usullari ishlab chiqilgan; oliy ta‘lim muassasalarida “Turizm”, “Mehmonxona menejmenti” va boshqa fanlarni o‘qitishda foydalanish uchun o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlangan, bu esa turistik korxonalarining raqamli marketing

strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga yordam beradi, bu tadqiqot natijalari O'zbekiston turizm sohasining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketingi samaradorligini oshirish metodologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "turizmda ijtimoiy media" tushunchasi turizm sohasida brendlarni rivojlantirish va mijozlar bilan interaktiv muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u turistik kompaniyalar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida samarali aloqalar o'rnatish, maqsadli auditoriyani jalb qilish va mijozlarning fikr-mulohazalarini yig'ish orqali turistlar tajribasini yaxshilashga xizmat qiladi, shu bilan birga, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Brend boshqaruvi" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2025-yil 27-iyundagi 02101-01-247-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida marketing yo'nalishidagi talabalar, shuningdek, boshqa manfaatdor turistik kompaniyalar, mahalliy hokimiyatlar va turistlar o'rtasida muloqotni rivojlantirish uchun ijtimoiy media marketingi samarali qo'llangan. Shuningdek, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlab, turizm industriyasining global raqobatbardoshligini oshirish va turizmda ijtimoiy media tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

turistik korxonalarining ijtimoiy media ko'rsatkichlari va turistik oqimlar o'rtasida korrelyatsion model ishlab chiqildi, bunda panel ma'lumotlar asosida samaradorlik ko'rsatkichlarining yuqori bog'liqligi ($R = 0.78$) aniqlangan va xarajatlarni 25 %ga optimallashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibidagi "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlar faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Natijada 2024-yil yakuni bo'yicha "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlarning ijtimoiy media marketingidagi faoliyati samaradorligi 35 %ga oshgan, mijozlar bazasi 2.5 barobarga kengaygan va marketing xarajatlari 25 %ga optimallashtirilgan;

turistik kontentning jalb etuvchanligi va relevantligini baholashning analitik modeli yaratildi, bunda sentiment tahlil (70 % ijobiy natija) va TF-IDF algoritmi (0.12-0.13 yuqori ko'rsatkich) asosida kontent samaradorligining miqdoriy ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibidagi "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlar faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va

iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 2024-yil yakuni bo'yicha "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlarda milliy turistik portal faoliyatiga joriy etilgan tahlil modeli quyidagi samaradorlikka olib keldi: turistik obyektlar haqidagi ijobiy fikrlar 70 %ga yetdi; kontent relevantligi ko'rsatkichi 0.13 darajasiga ko'tarildi; turistik ma'lumotlar bazasi 55 %ga optimallashtirildi.

turizm sohasida ijtimoiy media marketingi samaradorligining regression modeli ($R^2 = 0.741$) yaratildi, bunda marketing investitsiyalari rentabelligi ko'p omilli tahlil ($F = 53.663$, $p < 0.01$) asosida baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tarkibidagi "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlar faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 2024-yil yakuni bo'yicha "Mega Tour", "Delfin Travel", "Bekas Travel", "Coastal Wind Tour", "Four Tour" MChJlarining ijtimoiy media marketingidagi faoliyatida ROI ko'rsatkichi 31,2 foizga yaxshilangan;

O'zbekistonda turizm sohasining istiqboldagi rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy media marketing va raqamli infratuzilma ko'rsatkichlari inobatga olingan holda, xorijiy turistlar soni hamda turizm xizmatlari eksportining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-iyuldagi № 03-10-17-5954-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida olingan prognoz ko'rsatkichlardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024-2026-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasi asosiy parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g'oyasi va natijalari ma'ruzalar shaklida 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 9 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 212 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Turizmda ijtimoiy media marketingining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda turizmda ijtimoiy media marketingining nazariy-metodologik asoslari chuqur tadqiq etilgan. Bobning birinchi paragrafi turizm sohasida ijtimoiy media marketingining mohiyati va ahamiyatini yoritishdan boshlanib, bunda ijtimoiy media marketingining turizm industriyasidagi rolikdan tortib marketing faoliyatidagi transformatsion jarayonlargacha bo‘lgan masalalar qamrab olingan. Ijtimoiy media marketingining turizm sohasidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish uchun, avvalo, uning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish zarur. Turizm sohasida ijtimoiy media marketingining (SMM) o‘rni tobora ortib borayotgani bir qator xalqaro va mahalliy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan (1-jadval).

1-jadval

Turizmda ijtimoiy media marketingining nazariy-metodologik asoslari bo‘yicha olimlarning qarashlari¹²

№	Mualliflar	Mualliflarning yondashuvlari
1	Miller va Thompson (2023)	“Ijtimoiy media marketingi turizm biznesida mijozlar bilan munosabatlarni transformatsiya qilishning asosiy vositasiga aylandi”.
2	Zhang va Lee (2024)	“Turizm sohasida ijtimoiy media orqali marketing yuritish an’anaviy marketingga nisbatan 60 %gacha tejamkorlikni ta’minlaydi va maqsadli auditoriyaga yetib borish imkoniyatini 3 baravargacha oshiradi”.
3	Rossiyalik olimlar Petrov va Ivanov (2023)	“Zamonaviy turizm marketingida ijtimoiy medianing roli shunchalik muhimki, ularning samarali qo‘llanmasligi raqobat kurashida yutqazishga olib kelishi muqarrar”.
4	Brown va Wilson (2024)	“Turistik kompaniyalarning 87 % aynan ijtimoiy media orqali yangi mijozlar jalb qilmoqda, bu esa ushbu marketing vositasining samaradorligini isbotlaydi”.
5	Yaponiyalik tadqiqotchi Tanaka (2023)	“Ijtimoiy media marketingi nafaqat turistik mahsulotlarni targ‘ib qilish, balki mijozlar xulq-atvorini o‘rganish va tahlil qilishning eng samarali vositasid
6	O‘zbekistonlik olimlar Karimov va Rahimov (2023)	“Milliy turizm bozorida ijtimoiy media marketingining rivojlanishi mahalliy turistik kompaniyalarga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini yaratmoqda”.
